



INTERNATIONAL LEGAL FOUNDATIONS FOR REGULATING ALIMONY OBLIGATIONS COMPLICATED BY A FOREIGN ELEMENT

Gavkhar Kholikova

Doctoral student, University of World Economy and Diplomacy

gavharkholiqova@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: alimony obligations, private international law, foreign element, Hague Convention, international regulation, conflict-of-law issues, family law.

Received: 19.09.25

Accepted: 20.09.25

Published: 21.09.25

Abstract: This article examines the international legal regulation of alimony obligations complicated by a foreign element. In particular, it analyzes the content and scope of application of the Hague Conventions of 1956, 1973, and 2007, as well as their interaction with national legal norms. Special attention is given to the mechanisms for resolving maintenance disputes under these conventions and their significance in the development of international family law.

CHET EL ELEMENTI BILAN MURAKKABLAHGAN ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI

Gavhar Xoliqova

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tayanch doktoranti

gavharkholiqova@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: aliment majburiyatlari, xalqaro xususiy huquq, chet el elementi, Gaaga konvensiyasi, xalqaro tartibga solish, kollizion masalalar, oilaviy huquq.

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet el elementi bilan murakkablashgan aliment majburiyatlarini xalqaro-huquqiy tartibga solish masalalari yoritiladi. Xususan, 1956-yilgi, 1973-yilgi va 2007-yilgi Gaaga konvensiyalarining mazmuni, ularning qo'llanish sohasi hamda milliy huquq normalari bilan o'zaro uyg'unlashuvi ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Maqolada ushbu konvensiyalar doirasida aliment majburiyatlarini hal etish mexanizmlari va ularning xalqaro oilaviy huquqdagi ahamiyati ochib beriladi.

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ АЛИМЕНТНЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ, ОСЛОЖНЁННЫХ ИНОСТРАННЫМ ЭЛЕМЕНТОМ

Холикова Гавхар

Докторант Университета мировой экономики и дипломатии

gavharkholiqova@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: алиментные обязательства, международное частное право, иностранный элемент, Гагская конвенция, международное регулирование, коллизийные вопросы, семейное право.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы международно-правового регулирования алиментных обязательств, осложнённых иностранным элементом. В частности, анализируется содержание и сфера применения Гагских конвенций 1956, 1973 и 2007 годов, а также их соотношение с национальными правовыми нормами. Особое внимание уделяется механизмам разрешения алиментных споров в рамках данных конвенций и их значению для международного семейного права.

Oilaviy huquq doirasida aliment majburiyatlari muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, ular jamiyatning eng zaif qatlamlari — bolalar va boshqa qaramog'ida bo'lgan shaxslarning moddiy ta'minotini kafolatlashga xizmat qiladi. Agar bunday munosabatlarda chet el elementi yuzaga kelsa, ya'ni tomonlar turli davlatlarda yashasa yoki turli fuqarolikka mansub bo'lsa, u holda huquqni qo'llashda ko'plab kollizion vaziyatlar paydo bo'ladi.

Xalqaro hamjamiyat bunday muammolarni hal etish maqsadida bir qator universal konvensiyalarni qabul qilgan. Jumladan, 1956-yilda “Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi aliment majburiyatlariga nisbatan huquqni qo'llash to'g'risida”gi Gaaga konvensiyasi, 1973-yilda “Oila a'zolarini ta'minlash majburiyatlariga nisbatan huquqni qo'llash to'g'risida”gi Konvensiya va 2007-yilda “Bola uchun aliment undirish va oila a'zolarining boshqa shakldagi ta'minoti to'g'risida”gi Konvensiya xalqaro oilaviy huquq rivojida alohida o'rin egallaydi.

S.N. Tagayeva oilaviy munosabatlarda “chet el elementi” mavjud bo'lgan holatlarda, huquqiy tartibga solish ko'pincha milliy qonunchilikdagi kollizion normalar yordamida amalga oshiriladi deb ta'kidlaydi. Xalqaro unifikatsiyaga ham moddiy-huquqiy, ham kollizion oilaviy-huquqiy normalar kiradi. Ta'kidlash lozimki, yagona qoidalarni o'z ichiga olgan xalqaro shartnomalarning ahamiyati so'nggi yillarda ortib bormoqda, bu esa oilaviy munosabatlarda “chet el elementi” namoyon bo'lishi holatlari sonining faollashganidan dalolat beradi.

Aliment majburiyatlarini tartibga solishning xalqaro xususiy-huquqiy modeliga normalarning ikkita bloki kiritiladi. Birinchisi - xalqaro va kollizion normalar bo'lib, ular aliment

majburiyatlarining asosiy jihatlarini tartibga soladi, shuningdek, ushbu munosabatlar sohasida mintaqaviy yoki ikki tomonlama huquqiy yordam shartnomalarida mustahkamlangan normalarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi guruh - milliy qonunchilik normalari bo'lib, ular "xorijiy element" kiritilgan hollarda kollizion tartibga solishni belgilaydi va shu sababli xalqaro xususiy huquq tuzilmasiga kiradi.

Chet el elementi bilan murakkablashgan aliment majburiyatlarining xalqaro-huquqiy tartibga solinishi, avvalo, xalqaro shartnomalar tizimiga asoslanadi. Bunda asosiy huquqiy manba sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Gaaaga xalqaro xususiy huquq bo'yicha konferensiyasi tomonidan qabul qilingan konvensiyalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Aliment majburiyatlarini xalqaro darajada tartibga solishga doir ilk universal hujjatlardan biri bu — Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1956-yil 20-iyunda qabul qilingan “Chet eldan aliment undirish to'g'risida”gi Nyu-York konvensiyasidir. Ushbu Konvensiyaning qabul qilinishi xalqaro oilaviy huquq rivojida tub burilish nuqtasi bo'lib, u alimentni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning manfaatlarini transchegaraviy miqyosda himoya qilishga qaratilgan birinchi samarali xalqaro mexanizmni shakllantirdi. Konvensiyaning asosiy maqsadi – aliment oluvchilar manfaatini himoya qilish, davlatlararo hamkorlik orqali aliment undirish jarayonini soddalashtirish hamda samarali ijro mexanizmlarini joriy etishdir. Shu maqsadda Konvensiyada quyidagi asosiy qoidalar belgilangan: Markaziy organlar instituti – Har bir ishtirokchi davlat maxsus markaziy organ tayinlashi lozim bo'ladi. Ushbu organ aliment talabi bilan bog'liq hujjatlarni qabul qiladi, boshqa davlatlarga yuboradi va ularning ijrosini ta'minlaydi. Bu institut byurokratik to'siqlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ariza berish tartibi – Aliment oluvchi shaxs o'z yashash mamlakatida ariza beradi va u markaziy organ orqali aliment to'lovchining yashash davlatiga yuboriladi. Bu esa aliment oluvchini chet el sudlariga bevosita murojaat qilish majburiyatidan ozod qiladi.

Sud qarorlarini tan olish va ijro etish – Konvensiya ishtirokchi davlatlarga boshqa davlat sudlari chiqargan aliment to'g'risidagi qarorlarni tan olish va ijro etishni o'z zimmasiga olish majburiyatini yuklaydi. Shu orqali aliment oluvchining huquqlari davlat chegaralaridan qat'i nazar himoya qilinadi.

Xarajatlarni kamaytirish – Aliment talablarini ko'rib chiqish va ijro etishda huquqiy yordam, tarjima va hujjatlarni yuborish bo'yicha xarajatlarni imkon qadar kamaytirish mexanizmlari joriy etilgan. Bu ham aliment oluvchining manfaatlarini himoya qilishning muhim kafolatlaridan biridir.

Mazkur Konvensiya amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Chunki ko'pincha aliment majburiyatini bajarishdan qochayotgan shaxslar boshqa davlat hududiga chiqib ketishi mumkin. Agar bunday vaziyatda xalqaro huquqiy mexanizm mavjud bo'lmasa, aliment oluvchi shaxsning huquqlari buziladi va u moddiy ta'minotsiz qolib ketadi. Konvensiya esa bunday muammolarni

hal qilish uchun davlatlar o'rtasida bevosita huquqiy hamkorlikni ta'minlaydi. Ammo Nyu-York konvensiyasining ayrim cheklangan jihatlari ham mavjud. Jumladan, Konvensiya faqat ishtirokchi davlatlar o'rtasida amal qiladi, hamda u qabul qilingan davr sharoitlariga moslashganligi bois zamonaviy xalqaro hamkorlik talablariga to'liq javob bera olmaydi. 1956-yilgi Konvensiya bolalar foydasiga aliment undirishning asosiy bog'lovchi omili sifatida bolaning doimiy yashash joyi qonunini belgilagan. Faqatgina alohida hollarda, agar qonun bolaning aliment olish huquqini belgilamagan bo'lsa, ishni ko'rib chiqayotgan sud huquqini qo'llashga ruxsat berilgan. Ehtimol, aynan shu sababga ko'ra (tegishli bog'lanishning haddan tashqari "qat'iyligi" tufayli) ushbu Konvensiya keng miqyosda tan olinmagan. Ijobiy jihat sifatida 1956-yilgi Konvensiyada aliment olishga da'vo qilishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasi belgilanganligini ta'kidlash lozim. Ular orasida nikohda tug'ilgan va nikohsiz tug'ilgan bolalar 21 yoshga to'lgunga qadar bor. Keyinchalik 1973 va 2007-yillardagi Gaaga konvensiyalari ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida qabul qilingan. Shunga qaramay, Nyu-York konvensiyasi aliment majburiyatlarini xalqaro darajada tartibga solishning dastlabki va eng muhim bosqichi sifatida tarixiy ahamiyatga ega.

Keyingi bosqichda aliment majburiyatlariga nisbatan qo'llaniladigan huquqni aniqlash masalasini tartibga solish maqsadida 1973-yil 2-oktabrda Gaagada "Aliment majburiyatlariga nisbatan qo'llaniladigan huquq to'g'risida"gi Konvensiya qabul qilindi. Mazkur hujjat kollizion normalarni belgilash orqali qaysi davlat huquqi qo'llanilishini aniqlashda yagona yondashuvni shakllantirdi. Konvensiya prinsipial jihatdan aliment talablarini himoya qilishda aliment oluvchiga eng qulay huquqni qo'llash tamoyiliga asoslangan bo'lib, bu xalqaro oilaviy huquqda adolat va himoya kafolatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Konvensiya normalariga ko'ra, aliment majburiyatlariga nisbatan qo'llaniladigan huquq, odatda, aliment talab qilayotgan shaxsning doimiy yashash joyi huquqi hisoblanadi. Bu qoida aliment oluvchining ijtimoiy jihatdan ko'proq himoyalaniishi zarurligidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, ayrim hollarda aliment majburiyatini belgilash yoki bajarish qiyinlashib qolsa, sud yoki vakolatli organ manfaatdor tomonlarning aloqadorlik darajasini inobatga olib, boshqa davlat huquqini ham qo'llashi mumkin.

Konvensiyada shuningdek, davlatlar o'rtasidagi huquqiy hamkorlik masalalari ham belgilangan. Jumladan, agar bir mamlakat sudi aliment majburiyatiga oid qaror chiqargan bo'lsa, boshqa ishtirokchi davlat sudi ushbu qarorni tan olishi va ijro etishi uchun sharoit yaratilgan. Shu orqali transchegaraviy ijro mexanizmlarini samarali amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur Konvensiyaning ahamiyatli jihati shundaki, u aliment majburiyatlarini tartibga solishda "beneficiar — aliment oluvchi shaxs manfaatlarini ustuvor qo'yish" tamoyiliga

asoslanadi. Bu, o'z navbatida, xalqaro huquqda ijtimoiy himoya va insonparvarlik prinsiplarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu Konvensiya xalqaro aliment munosabatlarida huquqiy aniqlikni ta'minlash, sudlar o'rtasidagi turli kollizion vaziyatlarni bartaraf etish hamda aliment oluvchilar huquqlarining samarali kafolatlanishiga katta hissa qo'shgan hujjatlardan biri sifatida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy davrda esa 2007-yil 23-noyabrda qabul qilingan "Bolalar va boshqa oila a'zolariga nisbatan aliment majburiyatlariga oid xalqaro ijro mexanizmlari va qarorlarni tan olish to'g'risida"gi Gaaga konvensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu Konvensiya transchegaraviy aliment majburiyatlari ijrosida yanada samarali mexanizmlarni belgilab, sud qarorlarini tan olish, ijro etish va ularni tezkor amalga oshirishni ta'minlaydi. Shuningdek, davlatlar o'rtasida ma'lumot almashinuvi, alimentni to'lashdan bo'yin tovlagan shaxslarni aniqlash va ularning mol-mulkiga ta'sir choralarini qo'llash mexanizmlarini ham belgilaydi.

Nafaqa talablarini undirish bo'yicha 1956-yildagi Nyu-York Konvensiyasi hamda aliment to'g'risidagi qarorlarni tan olish va ijro etish haqidagi 1958 va 1973-yildagi Gaaga konvensiyalari o'zlaridan kutilgan maqsadlarga to'liq erisha olmaganlar. Ushbu Konvensiyalar ular tomonidan o'rnatilgan tizimlarning sekin ishlashi, qimmatligi va kamchiliklari tufayli samarali tarzda qo'llanilmagan, amaliyotda yuzaga keladigan muammolarning yechimiga to'la erisha olmagan.

Yigirmanchi asrning oxirlariga kelib, 1956-yildagi Nyu-York Shartnomasi va alimentlar to'g'risidagi qarorlarni tan olish va ijro etish bo'yicha Gaaga Konvensiyalarini qo'llash va nazorat qilish bilan bog'liq muammolar jiddiy darajaga yetdi. Xususan, Nyu-York shartnomasi keltirib chiqargan tizimning ehtiyojlarni qondira olmasligi va alimentlarni undirish jarayonida rivojlanayotgan axborot texnologiyalaridan foydalanish zaruriyati natijasida alimentlarni xalqaro miqyosda undirish bo'yicha yangi shartnoma tayyorlash zarurati paydo bo'ldi. Yangi o'zgarishlarni hisobga olgan holda, zamonaviy, ratsional yechimlar keltiradigan tartibga solishlarga ehtiyoj tufayli, Gaaga xalqaro xususiy huquq konferensiyasi, BMTning ham qo'llab-quvvatlashi bilan, aliment talablarini xalqaro undirish, tan olish-ijro etish va qo'llaniladigan huquq masalalarini qamrab oladigan yangi konvensiya tuzish maqsadida, 1990-yillarning boshidan boshlab ishlarni boshlagan.

Gaaga xalqaro xususiy huquq konferensiyasining uch hafta davom etgan 21-sessiyasining 2007-yil 23-noyabrda Gaaga shahrida bo'lib o'tgan so'nggi yig'ilishida, nafaqalarni xalqaro miqyosda undirishni osonlashtirish va qo'llaniladigan huquqqa oid yangi tendensiyalarni hisobga olish maqsadida tayyorlangan ikkita alohida xalqaro shartnoma matnlarini o'z ichiga olgan yakuniy hujjat imzolash uchun taqdim etilgan va yetmishta davlat tomonidan imzolaniib, qabul qilingan. Bu Shartnomalar: "Bolalar nafaqasi va oilaviy nafaqalarning boshqa turlarini xalqaro

miqyosda undirishga oid Gaaga Shartnomasi" hamda "Nafaqa majburiyatiga nisbatan qo'llaniladigan huquq to'g'risidagi Gaaga Protokoli"dir.

Qo'llaniladigan qonunchilik to'g'risidagi 2007-yilgi Gaaga protokoli va 2007-yilgi Gaaga undirish konvensiyasi bir-birini to'ldiruvchi bo'lsa-da, har ikkala hujjat ham bir-biridan mustaqil xususiyatga ega. Shu sababli, davlatlar Protokol va Undirish konvensiyasiga birgalikda yoki alohida-alohida a'zo bo'lishda erkindir. 2007-yilgi Gaaga undirish konvensiyasiga hozirga qadar o'ttiz to'qqizta davlat a'zo bo'lgan. Konvensiyaga dastlab Norvegiya, keyinchalik Albaniya a'zo bo'lganidan so'ng, Konvensiya o'zining 60-moddasiga muvofiq 2013-yil 1-yanvardan kuchga kirgan.

Ko'rinib turibdiki, xalqaro shartnomaviy asoslar aliment majburiyatlarining transchegaraviy xususiyatini hisobga olib, asosan uchta yo'nalishni qamrab oladi: qarorlarni ijro etish va tan olish, qo'llaniladigan huquqni aniqlash, xalqaro hamkorlik mexanizmlarini tashkil etish. Shu orqali xalqaro huquqiy tartibga solish aliment oluvchining huquqlarini samarali himoya qilishga qaratilgan bo'lib, milliy qonunchiliklarning o'zaro uyg'unligi va amaliy mexanizmlarning barqaror ishlashini ta'minlaydi. Aliment majburiyatlarini xalqaro shartnomaviy tartibga solishning bosqichma-bosqich evolyutsiyasi aliment oluvchilarning, ayniqsa voyaga yetmagan bolalarning manfaatlarini himoya qilish yo'lida muhim qadamlar bo'lganini ko'rsatadi. Nyu-York Konvensiyasi xalqaro huquqiy yordamning dastlabki mexanizmini yaratgan bo'lsa, 1973-yilgi Gaaga Konvensiyasi kollizion huquqiy aniqlikni ta'minladi, 2007-yilgi Gaaga Konvensiyasi esa bu sohada universal standart sifatida tan olindi. Demak, xalqaro shartnomaviy huquq normalari aliment majburiyatlarini samarali tartibga solishda milliy huquqiy tizimlarni uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi asosiy omil bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, chet el elementi bilan murakkablashgan aliment majburiyatlari xalqaro xususiy huquqning eng murakkab va dolzarb sohalaridan biri hisoblanadi. Bunday munosabatlarda turli davlatlarning oilaviy va protsessual huquq normalari o'zaro to'qnashib, qaysi davlat huquqi qo'llanishi masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

1956, 1973 va 2007-yillarda qabul qilingan Gaaga konvensiyalari aliment majburiyatlarini tartibga solishda asosiy xalqaro huquqiy manba sifatida e'tirof etiladi. Ularning normalari qo'llaniladigan huquqni aniqlash, da'volarni ko'rib chiqish va ijro jarayonlarini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, ushbu konvensiyalar qoidalarini milliy qonunchilikka moslashtirish, ularning amaliyotda to'liq qo'llanishini ta'minlash hamon dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish, kollizion normalarni uyg'unlashtirish va samarali mexanizmlarni ishlab chiqish aliment majburiyatlarini tartibga solishning istiqbolli yo'nalishlari sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hague Conference on Private International Law (HCCH). (2007). Convention on the International Recovery of Child Support and Other Forms of Family Maintenance (The Hague, 23 November 2007). Retrieved from <https://www.hcch.net/en/instruments/conventions/full-text/?cid=131>
2. Hague Conference on Private International Law (HCCH). (1973). Convention on the Recognition and Enforcement of Decisions Relating to Maintenance Obligations (The Hague, 2 October 1973). Retrieved from <https://www.hcch.net/en/instruments/conventions/full-text/?cid=86>
3. United Nations. (1956). Convention on the Recovery Abroad of Maintenance (New York, 20 June 1956).
Retrieved from https://treaties.un.org/pages/ViewDetails.aspx?src=IND&mtdsg_no=XVI-1&chapter=16
4. AYGÜN, Mesut: Milletlerarası Özel Hukukta Nafakaya İlişkin Yeni Sistem, Yetkin Yayınevi, Ankara 2016, s. 107.
5. BORRAS, Alegría/ DEGELING, Jennifer: Explanatory Report of Convention of 23 November 2007 on the International Recovery of Child Support and Other Forms of Family Maintenance, (Explanatory Report), HCCH: <https://assets.hcch.net/upload/exp138.pdf>, (Erişim tarihi: 21.01.2018), s. 49.
6. Бояркина Анна Юрьевна. "Коллизионное регулирование алиментных обязательств в международном частном праве" Контентус, по. 5 (82), 2019, pp. 67-78.
7. Duncan, William. Family Law Quarterly; Chicago Vol 43, No. 1, (Spring 2009): 1-20.
8. GROFF, Maja: "The Potential of the 2007 Child Support Convention: Addressing Global Poverty and Supporting Economic Rights", The Recovery of Maintenance in The EU and Worldwide (Edited by Paul Beaumont, Burkhard Hess, Lara Walker and Stefanie Spancken), Hart Publishing, Oxford 2014, s. 89.
9. Тагаева С.Н. Коллизионно-правовое регулирование семейно-правовой ответственности // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения 2014 №4 6 С. 665.
10. TANRIBİLİR, Feriha Bilge: Çocuk Haklarının Uluslararası Korunması ve Koruma Mekanizmaları, Yetkin Yayınevi, Ankara 2011, s. 110.
11. ZUPAN, Mirela: "Innovations of The 2007 Hague Maintenance Protokol", The Recovery of Maintenance in The EU and Worldwide (Edited by Paul Beaumont, Burkhard Hess, Lara Walker and Stefanie Spancken), Oxford 2014, s. 314.